

Xush kelibsiz, iste'dodlar

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida 2023/2024-o'quv yili munosabati bilan tadbir tashkil etildi.

Tadbirni oliygoh rektori v.b. Eldor Shermanov ochib berdi. Eldor Shermanov nutqi davomida ijodiy va test imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tgan talabalarni tabriklab, ularga muvaffaqiyat tiladi. Talabalarning yetuk bilimlarni egallab, sohaning malakali xodimiga aylanishi uchun ta'lim muassasa rahbariyati tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratilishi ta'kidlandi.

Shu bilan birga, imtihonlarda yuqori natijaga erishgan talabalar institut rahbariyati tomonidan tashakkurnoma bilan taqdirlandi.

Shuningdek, xalq xofizlari, el suygan san'atkorlar hamda iqtidorli talabalarning chiqishlari ham tomoshabinlarga zavq bag'ishladi. Bayram shukuhi davom etmoqda.











O'zDSMIda yangi o'quv yili boshlandi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida 2023/2024-yilgi o'quv mavsumi boshlandi.

Erta tongdan oliygohning malakali professor-o'qituvchilari, zahmatkash xodimlari hamda bilimga chanqoq talabalari katta tantana bilan kutib olindi.

Shu bilan birga, o'quv binolarida talabalar uchun «Vatan ozodligi yo'lida shahid ketganlar mangu barhayotdir» mavzusida Mustaqillik darslari tashkil etildi. Darslarni institut rahbariyati, professor-o'qituvchilar, taniqli olimlar va ziyolilar olib bordi.

Ta'lim muassasasi rektori v.b. Eldor Shermanov mazkur darslarni ochib berdi hamda o'z nutqi davomida ijodiy va test imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tgan talabalarni tabriklab, ularga muvaffaqiyat tiladi.

Oliygoth hududida bayram shukuhi davom etmoqda.





